

## Davlat rahbari e'tirofidagi ustozlar

Zahmat chekmaguncha rahmat eshitilmas. Xalqimizning ushbu naqli teran mohiyatga ega. Uzoq yillar Vatanimizga xizmat qilib, xalqimizning katta hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lgan insonlar anchaginadir. Ular mamlakatimizning taraqqiyotiga o'zlarining salohiyati nuqtai nazaridan katta hissa qo'shganlardir. Ulardan bir guruh fidoiy insonlar ro'yxati tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoevning shaxsan topshiriqlariga binoan, ularni sog'liklarini tiklash va rag'batlantirish maqsadida, Jizzax viloyati Zomin tumanida yangidan bunyod etilgan "NKMK sanatoriysi"da dam olishlari uchun bepul yo'llanmalar berildi. Ushbu sanatoriya bugungi kun zamon standartlariga to'la javob beradigan sehatgohlardandir.



Prezidentimiz e'tirofidagi insonlar qatorida bizning institutimizdan "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti professori Muhayyo Shoumarova, "Avtosaroy" boshlig'i Qurbon Ziyotov, "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalashtirish" fakulteti dotsenti Nail Usmanovlar ham borligi juda quvonarlidir. Ularni Davlat rahbarining ushbu ulug' e'tirofi bilan qutlaymiz.

**Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi F.Irisov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**